


**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**60812100 - *Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi*
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQUILGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 133 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T.r.	bet
1. 60812100 — <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> bakalavriat ta'lim o'nalishinin urnumi tasnifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60812100— <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta texnologiyasi</i> Malaka talabining qo'llanishi.....	
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yunalishi buyicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yunalishi buyicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining soxalari.....	4
1.2.2. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yunalishi buyicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yunalishi buyicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60812100 - <i>Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta'lim yunalishi buyicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar	7
Bibliografik ma'lumotlar	8
Kelishuv varag'i.....	9

**1. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi
bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. O'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi

Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 60812100 - *Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi:

1.2.1. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, introduksiya qilingan dorivor o'simliklar, ulardan oqilona foydalanish, farmatsevtika sanoatining dorivor o'simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida ishlab chiqish, farmatsevtika sanoatining dorivor o'simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish, dorivor o'simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash tizimida qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari, dorivor o'simlik xom-ashyolarini tayyorlash, dastlabki qayta ishlash va saqlash hamda ishlash jarayonlarini optimallashtirish, dorivor o'simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash, xom-ashyo mahsulotlarini saqlash hamda ularga birlamchi ishlov berish korxonalari va tashkilotlarning boshqaruv tizimlariga doir masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari; boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60812100 - Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60812100 - *Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar*

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- dorivor o'simlik xom-ashyosini qayta ishlash obyektlarida strategik va operasion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- dorivor o'simliklar ulardan oqilona foydalanish farmatsevtika sanoatining xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyojini qondirish chora-tadbirlari rejasini tuzish va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- dorivor o'simliklarni yetishtirishni amalga oshirish uquviga ega bo'lish;
- istiqbolli dorivor o'simlik turlarini ochiq yerlarda plantatsiyasini, himoyalangan yerlardan foydalanish loyihasini ishlab chiqish va biologik materiallarni tayyorlash usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiriq etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestasiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, Yetishtirish texnologiyasi, qayta ishlash, dorivor o'simliklar, farmokognoziya, fitopereparatlar texnologiyasi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, malaka talablari, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, servis xizmati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, ishlab chiqarish texnologik, tashkiliy-boshqaruv, loyiha texnologik, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**



Rektor  X.B. Yunusov

2022 yil « _____ » _____

M.O.:

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tadbiq etish markazi**

Direktor  Sh. Yakubov

2022 yil « _____ » _____

M.O.:


**O'zbekiston Respublikasi
Veterinariya va chorvachilikni
rivojlantirish davlat qo'mitasi**

Direktor  B.T. Norqobilov

2024 yil « _____ » _____

M.O.:

'Shafran' ilmiy tadqiqot markazi

Direktor  B.Yo. To'xtayev.

2022 yil « _____ » _____

M.O.:

**O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot
instituti**

Direktor  A. Xamzayev

2022 yil « _____ » _____

M.O.: